

TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI.

*Andijon Davlat Pedagogika instituti
Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo'nalishi 2-bosqich 203- guruh talabalari
Turdaliyeva Zarnigor
Olimjonova Mohidil*

Annotatsiya

Tarbiya - bu jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, shaxs shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan murakkab pedagogik hodisa sifatida qaraladi. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmunini to'g'ri tushunish pedagoglar, psixologlar va ta'lim tizimidagi barcha ishtirokchilar uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya tamoyillari , xulq- atvor, dunyoqarash , tarbiya metodlari, ijtimoiy ong.

Аннотация

Воспитание является одним из основных факторов развития общества и играет решающую роль в формировании личности. В современной системе образования процесс воспитания рассматривается как сложное педагогическое явление, обеспечивающее всестороннее развитие личности. Правильное понимание сущности и содержания процесса воспитания необходимо для педагогов, психологов и всех участников системы образования.

Ключение слова: Воспитание, принципы воспитания, поведение, мировоззрение ,методы воспитания, общественное сознание.

Annotation

Education is one of the fundamental factors in the development of society and plays a decisive role in the formation of an individual. In the modern education system, the process of upbringing is viewed as a complex pedagogical phenomenon that ensures the comprehensive development of the individual. Understanding the essence and content of the upbringing process correctly is essential for teachers, psychologists, and all participants in the education system.

Key words: upbringing, principles of upbringing, behavior, worldview, methods of upbringing, social consciousness.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o'rgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya

nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog'liq. Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyanan holda olib boruvchi faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: « Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy-milliy ilimga doir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan. Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruxiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini tahminlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonidabolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg'otish;
- b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;
- d) umuminsoniy axloq mehyorlarini anglashni odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy mehyorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchilarda fuqarolik tuyg'usini, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, mexnat muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

j) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va boshqalar.

Tarbiya jarayonining O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsadi aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita - bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishga doir, ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, mexnat, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutiladi. Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi va g'oyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez suratda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati o'zining uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni - bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya jarayonining mazmuni jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan barcha ta'sir turlari, usullari va vositalarni o'z ichiga oladi. Bu mazmun bir necha asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Axloqiy tarbiya shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini, yaxshi xulq-atvor qoidalarini, odob-axloq me'yorlarini

shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'nalish insonning ijtimoiy muhitda to'g'ri munosabatda bo'lishi, jamiyat a'zosi sifatida o'z mas'uliyatini his qilishi uchun zarurdir. Axloqiy tarbiya orqali yoshlarda halollik, adolatlilik, mehribonlik, saxiylik kabi fazilatlar tarkib topadi. Mehnat tarbiyasi orqali yoshlarda mehnatsevarlik, mas'uliyat hissi, ijodiy yondoshuv va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Zamonaviy davrda mehnat tarbiyasi nafaqat jismoniy mehnat ko'nikmalarini, balki intellektual faoliyat, tadbirkorlik va kasbiy tayyorgarlik elementlarini ham o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy takomillik va salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu yo'nalish nafaqat sport bilan shug'ullanishni, balki gigiyena qoidalariga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya orqali yoshlarda go'zallikni his qilish, badiiy didni shakllantirish, san'at asarlarini anglash qobiliyati rivojlantiriladi. Bu tarbiya turi shaxsning hissiy dunyosini boyitadi va ijodiy qobiliyatlarni ochib beradi. Huquqiy tarbiya fuqarolarning huquq va majburiyatlarini o'rganish, qonun-qoidalariga rioya qilish madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq. Bu yo'nalish yoshlarni jamiyatda o'z huquqlarini himoya qila olish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga o'rgatadi. Zamonaviy davrda ekologik tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalish orqali yoshlarda tabiatni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish shakllantiriladi.

Xulosa

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni - bu zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Tarbiya shunchaki bilim berish emas, balki to'laqonli, ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom, jamiyatga foydali shaxsni shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz bo'lib, u jamiyatning barcha institutlari va sub'yektlarining yaqin hamkorligini talab etadi. Zamonaviy sharoitda tarbiya jarayoni an'anaviy qadriyatlar va yangi pedagogik yondashuvlarning uyg'unlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ijtimoiy o'zgarishlar tarbiya tizimiga yangi talablar qo'yimoqda. Shu sababli, tarbiya jarayonini doimiy takomillashtirish, uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirib borish zarur. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati pedagoglarning professional mahorati, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va jamiyatning tarbiyaga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Faqat barcha sub'yektlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida yuksak ma'naviyatli, bilimli va hayotga tayyor yoshlar avlodini tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 192 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 256 b.
3. G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 402 b.

4. 4.Hasanboeva O., Usmonboeva Sh. Pedagogika. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. – 444 b.
5. 5.Hoshimov O., Avliyoqulov N. Pedagogika. – Toshkent: Sharq, 2011. – 368 b.
6. 6.Inoyatov Q., Mirzayev T. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 432 b.
7. 7.Qodirova F.R., Yo'ldosheva Sh. Ta'lim nazariyasi va texnologiyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2018. – 320